



XORIJIY TILLARNI O'RGANISH TALABI - ZAMON TALABI

Miyassarova Gulchehra Bobir qizi

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab shiddat bilan avj olmoqda. Xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorlik, almashinuvlar ortib borgani sayin chet tilini o'rganuvchilar soni ham kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bundan tashqari har bir kishi o'z ona tilidan tashqari boshqa tillarda ham muloqot qila olishi ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Ilm fan va texnologiyalar rivojlangan globallashuv davrida xorijiy tillarni puxta egallagan yosh kadrlarga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Bu esa yoshlar orasida chet tillarini o'rganishga qiziquvchilar sonining yanada oshishiga zamin bo'lmoqda. Ushbu maqola orqali xorijiy tillarga bo'lgan talab va uning manfaatlari, xorijiy tillarni o'rganishdagi kamchilik va bartaraf etish usullari yoritib berilgan.

Chet tillarini o'rganish dunyo qarashni tubdan o'zgartiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki inson necha yoshda bo'lishidan qat'iy nazar ko'p til biladigan odamlarning xotirasi boshqalarnikiga qaraganda mustahkam, ijodiy, muammolarni har taraflama oson hal qila oladigan bo'ladi. Bunday afzalliklar nafaqat til o'rganishni osonlashtiradi balki ishda, sayohatda, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro beznis hamkorlik qilib muvaffaqiyatga erishishda katta yordam beradi. Hozirgi kunda mamlakatlar o'rtasida oldi-sotdi, diplomatik aloqalar, talabalar almashinuvi, sayohatlar jadal rivojlanib har bir kadrdan qo'shimcha bir necha tillarni bilishi talab etilmoqda. Jumladan Ingliz tili keng tarqalgan xalqaro til bo'lib Ingliz tilini bilish turli sohalarida ta'lim, beznis, sayohatda yuqori talabga ega. Ingliz tilida ta'limga talab ayniqsa Osiyo va rivojlanayotgan mamlakatlarda tez o'sib bormoqda. Ayni damda shuni ta'kidlash joizki tinimsiz o'sib borayotgan Koreyaning iqtisodiy ta'sirining kuchayishi tufayli koreys tilini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Koreya bilan savdo va sarmoyaning kengayishi

sayyohlarning ko'payishi bilan beznis, ta'lim va sayohat sohalarida koreys tilini bilish zarur bo'lib qolmoqda. Globallashuv va baynalmilallashuv tezlashar ekan Ingliz koreys tillaridan tashqari qo'shimcha xorijiy tillarni xususan Yevropa tillari, ispan, arab, yapon tillarini bilish talab etilmoqda. Shaxsiy o'z o'zini rivojlantirish, ko'p tilli ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj, madaniy tushunish, sevimli mashg'ulotlar, onlayn ma'ruzalar va ta'lim platformalarining rivojlanishi chet tillarini o'rganishga bo'lgan imkoniyatni oshirdi.

Bilamizki barchaning o'z ona tili aqliy tafakkur rivojlanishida asosiy o'rin tutadigan birinchi tildir. Xorijiy tillarni o'rganish borasidagi muammolar zarur bo'lgan masalalar bilan uzviy bog'liqdir. O'quvchi yoshlar o'z ona tilida yetarlicha bilimga ega bo'lmasligi chet tillarini o'rganish jarayonida bir necha to'siqlarni keltirib chiqarmoqda. O'z ona tilining qonuniyat va qoidalarini mukammal egallamagan talabanning yozma va og'zaki savodxonligi pasayib ketadi va bunday bilimni egallamagan talabadan xorijiy tilni yuksak darajada egallashni talab qilish mushkul bo'ladi. Xorijiy tillarni o'rganishdagi eng katta muammo bu o'z ona tilida yetarlicha bilimga ega emasligidir. Shu bois ona tilini o'rganishga uning har bir qoidasiga alohida e'tibor qaratish, nafaqat davlat tili nufuzini saqlab qolishga xizmat qiladi, balki o'quvchi chet tilini talab darajasida egallashi uchun asos bo'ladi.

Xorijiy tillarga bo'lgan talab va ehtiyojlarga binoan muayyan tilni samarali o'rganish usullari ham turlichadir. Birinchi navbatda til o'rganish maqsadini (ish, sayohat, o'qish va hokazo) aniqlab va shunga muvofiq amaliy maqsadlarni belgilash, maqsadga qarab avvalo o'rganish kerak bo'lgan lug'at, grammatika va suhbat kabi tarkibni tanlash mumkin. Ikkinchidan darsliklarni o'rganish, onlayn ma'ruzalar, til ilovalari va ona tilida so'zlashuvchilar bilan suhbatni mashq qilish kabi turli xil o'rganish usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda chet el lga bo'lgan qiziqish sayohatlar orqali chet tilini o'rganishga qiziquvchilarning soni va ularning bilimlarini boyitishda innovatsion texnologiyalarning o'rne beqiyos deb ayta olamiz. Xulosa qilib aytganda doimiy izlanish va amaliyot qisqa muddatli intensiv o'rganishdan ko'ra muhimroqdir. Til o'rganish uzluksiz va tinimsiz harakat talab qiladigan jarayon, shuning uchun taslim bo'lmasdan davom ettirish muhimdir. Turli xil o'rganish usullaridan foydalangan holda ma'lum bir tilni samarali o'rganish mumkin. Jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishni istagan har qanday kishi avvalo o'z tilini, dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini topishni istagan inson esa chet tillarini bilishi muhimdir. Til o'rganish vaqt va kuch talab etadi lekin izchil amaliyot bilan albatta har bir inson maqsadiga erisha oladi.